

**TERGOV FAOLIYATIDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASHNING
PROTSESSUAL KAFOLATLARI: QONUNCHILIKDAGI MUAMMOLAR VA
ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI**

Abduqaxxorova Nilufar Sherzod qizi

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi Tergov faoliyati yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Maqolada dastlabki tergov va protsessual majburlov choralarini qo‘llash amaliyotidagi huquqiy bo‘shliqlar hamda inson huquqlarini ta‘minlashning protsessual mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Tergovchi va tergov sudyasi vakolatlarining nisbati, “amalda ushlab turish” va “protsessual ushlab turish” tushunchalari o‘rtasidagi tafovut, “Xabeas korpus” institutini kengaytirish zarurati, Oliy sud Plenumi tushuntirishlari asosida himoya huquqi kafolatlarining amaliy ishlash mexanizmlari, tergov jarayonida inson omili bilan bog‘liq risklarning protsessual kafolatlariga ta’siri hamda raqamli dalillarni to‘plashda shaxsiy hayot daxlsizligini ta‘minlashning zamonaviy muammolari ko‘rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, Italiya, Qozog‘iston) tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan aniq va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tergov faoliyati, protsessual mexanizmlar, tergovchi vakolatlari, tergov sudyasi, ushlab turish, “Xabeas korpus” instituti, dalillar maqbulligi, inson omili, sud nazorati, raqamli dalillar, shaxs daxlsizligi.

Аннотация. В статье системно анализируются правовые пробелы в практике применения мер процессуального принуждения и досудебного расследования, а также процессуальные механизмы обеспечения прав человека. Рассмотрены соотношение полномочий следователя и следственного судьи, различие между «фактическим задержанием» и «процессуальным задержанием», необходимость расширения института «Хабес корпус», практические механизмы гарантий права на защиту, влияние рисков, связанных с человеческим фактором, на процессуальные гарантии, а также современные проблемы обеспечения неприкосновенности частной жизни при сборе цифровых доказательств. На основе сравнительного анализа зарубежного опыта (Франция, Германия, Италия, Казахстан) выработаны конкретные предложения по совершенствованию национального законодательства.

Ключевые слова: следственная деятельность, процессуальные механизмы, полномочия следователя, следственный судья, задержание, институт «Хабес корпус», допустимость доказательств, человеческий фактор, судебный контроль, цифровые доказательства, неприкосновенность личности.

Abstract. *The article provides a systemic analysis of legal gaps in the application of procedural coercive measures and pre-trial investigation, as well as procedural mechanisms for ensuring human rights. It examines the correlation between the powers of the investigator and the investigating judge, the distinction between “actual apprehension” and “procedural detention”, the need to expand the institute of “Habeas Corpus”, the practical operation of the right-to-defence guarantees, the impact of human-factor risks on procedural guarantees, and contemporary problems of ensuring privacy in the collection of digital evidence. Based on a comparative analysis of foreign experience (France, Germany, Italy, Kazakhstan), concrete and practical proposals for improving national legislation are developed.*

Keywords: *investigative activity, procedural mechanisms, investigator’s powers, investigating judge, detention, Habeas Corpus institute, admissibility of evidence, human factor, judicial control, digital evidence, personal inviolability.*

Zamonaviy jinoyat-protsessual huquqining eng murakkab muammolaridan biri jinoyatchilikka qarshi kurashdagi ommaviy manfaatlar (tez va to‘laonli tergov) bilan shaxsning fundamental huquqlari o‘rtasidagi proporsional muvozanatni ta‘minlashdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri (27, 28-moddalar) shaxs erkinligi va daxlsizligini oliy darajada kafolatlab, tergov faoliyatida bu huquqlarni cheklash faqat qat’iy qonuniy asoslarda va sud nazorati ostida amalga oshirilishini imperativ qoida sifatida belgilaydi [1]. Jinoyat-protsessual kodeksining 36-moddasiga muvofiq, tergovchi jinoyat ishini qo‘zg‘atish, uni tugatish, gumon qilinuvchini ushlash va so‘roq qilish, tergov harakatlarini o‘tkazish hamda protsessual qarorlar qabul qilish kabi keng qamrovli vakolatlarga ega bo‘lib, uning har bir qarori shaxs huquqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [2, 11].

Shu bilan bir qatorda, 2022–2025-yillardagi sud-huquq islohotlari doirasida joriy etilgan tergov sudyasi instituti (JPK 31-1-moddasi) tergov organlari va prokuror nazoratining bir tomonlama ayblov yo‘nalishini mustaqil sud hokimiyati bilan muvofiqlashtirishga, ayblov va himoya o‘rtasidagi tenglik prinsipini amalda ta‘minlashga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi [10]. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tergovchi, tergov sudyasi va prokuror vakolatlari o‘rtasidagi chegaralar, protsessual mexanizmlardagi ayrim noaniqliklar, shuningdek tergov faoliyatida ishtirok etuvchi shaxslarning kasbiy va psixologik holati bilan bog‘liq omillar tergov bosqichida huquqni qo‘llashda turlicha talqinlarga hamda inson huquqlari buzilishi xavfiga sabab bo‘lmoqda [12]. Mazkur maqolaning maqsadi ushbu muammolarni majburlov choralari, himoya huquqi, sud nazorati, inson omili va raqamli dalillar nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

1. Tergovchi va tergov sudyasi vakolatlari tizimida inson huquqlarini ta'minlashning nazariy asoslari.

Tergov faoliyatida inson huquqlarining protsessual kafolatlarini tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi vakolatlar taqsimotining aniqligidir. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, tergovchining vakolatlari qanchalik aniq va muvozanatli belgilangan bo'lsa, jinoyat protsessining samaradorligi va inson huquqlarining himoyalaniish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi [11]. Tergovchi tergov yo'nalishini va tergov harakatlarini amalga oshirish bo'yicha qarorlarni mustaqil qabul qiladi, biroq shaxs huquqlarini bevosita cheklovchi bir qator majburlov choralarini qo'llash uchun sud yoki prokuror roziligi talab etiladi, bu esa tergov faoliyatida ichki nazorat mexanizmining mavjudligini ta'minlaydi [11].

Tergov sudyasi instituti esa mazkur nazorat tizimining alohida sud shaklidagi bo'g'inini tashkil etadi. Zamonaviy jinoyat-protsessual huquqda tergov sudyasi sud hokimiyatining sudga qadar bosqichdagi maxsus ifodasi sifatida namoyon bo'lib, uning vakolatlari jinoyat ishi bo'yicha ayb masalasini hal etishga emas, balki shaxs huquq va erkinliklariga taalluqli protsessual qarorlarni qabul qilishga yo'naltirilgan, ya'ni mazmunan profilaktik va kafolatlovchi xarakterga ega [10]. Boshqacha aytganda, tergovchi tergov jarayonining harakatlantiruvchi subyekt bo'lsa, tergov sudyasi ushbu jarayon ustidan mustaqil, neytral va ruxsat beruvchi nazoratchi vazifasini bajaradi. Bunday funksional ajratish davlatning jazolovchi (ayblov) funksiyasi bilan shaxsning daxlsizlik huquqi o'rtasida muvozanatni ta'minlashning asosiy protsessual vositasi hisoblanadi [10].

Qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, turli davlatlarda ushbu muvozanat turlicha yechilgan. 1-jadvalda O'zbekiston tergov sudyasi instituti xorijiy modellarning asosiy xususiyatlari bilan solishtirilgan.

Davlat	Instituti	Vakolatlar hajmi	Xususiyati
Fransiya	Juge d'instruction	Tergovni to'liq boshqaradi, dalil to'playdi, majburlov choralarini qo'llaydi	Eng keng vakolatli, tarixan birinchi model [10]
Germaniya	Ermittlungsrichter	Faqat prokuror iltimosiga ko'ra majburlov choralarini sanksiya qiladi	Faqat nazorat funksiyasi [10]
Italiya	Giudice per le indagini preliminari	Huquqlarni himoya qilish va majburlov	1988-yildan tergov

Davlat	Instituti	Vakolatlar hajmi	Xususiyati
		choralarini nazorat qilish bilan cheklangan	prokurorga o‘tkazilgan [10]
Qozog‘iston	Tergov sudyasi	Ehtiyot sanksiya qilish, shikoyatlarni ko‘rib chiqish	Postsovet modeliga yaqin [10]
O‘zbekiston	Tergov sudyasi (JPK 31-1-m.)	Faqat majburiy choralarini sanksiyalash va ma‘muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish	Nisbatan yangi va tor vakolatli institut [10]

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda tergov sudyasi instituti hozircha faqat sanksiyalash funksiyasi bilan cheklangan bo‘lib, bu uning to‘liq salohiyatini ishga solmayotganini ko‘rsatadi [10]. Shu sababli, tergovchi vakolatlarining mustaqilligi bilan tergov sudyasi nazoratining kengayishi o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri belgilash inson huquqlarini ta‘minlashning institutsional asosidir.

2. Ushlab turish mexanizmidagi huquqiy bo‘shliq.

Dastlabki tergovning eng keskin majburlov chorasi bo‘lgan ushlab turish institutida (JPK 221-moddasi) nazariy va amaliy muammolar saqlanib qolmoqda. Asosiy muammo shaxs erkinligining haqiqatda cheklangan vaqti (“amalda ushlash”) bilan bu holatning yuridik rasmiylashtirilishi (“protsessual ushlab turish”) o‘rtasidagi tafovutda namoyon bo‘ladi: shaxs voqea joyida yoki maxsus operatsiya davomida ushlanadi, biroq tergov bo‘limiga olib kelinib bayonnoma tuzilguniga qadar (ba‘zan bir necha soat) uning huquqiy maqomi noaniq qoladi.

Ushbu bo‘shliqning yuzaga kelishida, ko‘p hollarda, sof normativ emas, balki tashkiliy-institutsional sabablar ham mavjud. Xususan, tergovchining bir vaqtning o‘zida bir nechta ishni yuritishi va vaqt bosimi ostida ishlashi shoshma-shosharlikka hamda hujjatlashtirishning kechikishiga olib kelishi mumkin [12]. Shu bois, JPK 224-moddasiga shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab, vizual va audio qayd qilish moslamalari uzluksiz ishlagan holatda, unga “Miranda qoidalari” (sukut saqlash va advokat talab qilish huquqi) zudlik bilan tushuntirilishi majburiyligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritish, shuningdek amalda ushlash bilan protsessual rasmiylashtirish o‘rtasidagi vaqt oralig‘ini avtomatik hisoblovchi elektron monitoring tizimini joriy etish lozim.

3. Himoya huquqi va dalillar maqbulligida advokatning ro‘li.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli qarorida himoya huquqi buzilgan holda olingan har qanday ko‘rsatuv yuridik kuchga ega bo‘lmasligi belgilangan [5]. 2018-yil 24-avgustda 24-sonli Qaror esa dalillar maqbulligiga oid protsessual normalarni qo‘llash amaliyotini yanada aniqlashtirdi [4]. Shunga qaramay, amaliyotda advokatning dalillar to‘plashdagi ishtiroki (JPK 87-moddasi) tergovchi tomonidan cheklanish holatlari uchraydi, natijada dastlabki bosqichda olingan iqrorklik ko‘rsatuvlari sud jarayonida ko‘pincha o‘zgaradi. Ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanganidek, gumon qilinuvchining huquqlari buzilgan taqdirda tergov natijalari ishonchligini yo‘qotadi, shu sababli tergovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir harakat qonuniylik va inson huquqlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslanishi lozim [11].

Bu muammoning protsessual yechimi advokat so‘rovi institutini kuchaytirish, mudofaa tarafi taqdim etgan dalillarni jinoyat ishi materiallariga qo‘shishni tergovchi uchun imperativ majburiyat qilib belgilash, shuningdek dalillarni yig‘ish jarayonida protsessual normalarga rioya qilinmasligi ularning yaroqsiz deb topilishiga olib kelishini nazarda tutgan holda, tergovchi faoliyatini ichki nazorat va sud nazorati orqali muntazam tekshirib borishdir [11].

4. “Xabeas korpus” instituti, tergov sudyasi va sud nazoratidagi kolliziyalar.

Tergov ustidan sud nazorati shaxs daxlsizligining asosiy kafolatidir: qamoqqa olish, uy qamog‘i, lavozimdan chetlashtirish, pochtaga xatlov qo‘yish va murdani ekskumatsiya qilish kabi harakatlar sud sanksiyasi asosida amalga oshirilishi odil sudlovning muhim yutug‘i hisoblanadi. Aynan shu choralar ustidan nazoratni joriy etish tergov sudyasi institutining markaziy belgisi sifatida namoyon bo‘ladi va tergov sudyasining roli ko‘p jihatdan Xabeas korpus prinsipiga yaqinlashadi u ayblovl tomoni emas va dalillarni o‘zi to‘plamaydi, balki himoya filtri vazifasini bajaradi [10].

Biroq tintuv o‘tkazish, muloqotlarni eshitish va elektron yozishmalarni xatlash kabi shaxsiy hayot daxlsizligiga bevosita ta’sir qiluvchi harakatlar ustidan sud nazoratining to‘laqonli mexanizmi hali oxiriga yetkazilmagan. Xalqaro tajriba xususan Fransiyadagi juge d’instruction institutining tergovni to‘liq boshqarish vakolatidan tortib, Germaniyadagi Ermittlungsrichter’ning faqat nazorat funksiyasigacha bo‘lgan diapazoni O‘zbekistonda ushbu institutni rivojlantirish uchun muhim yo‘nalishlarni ko‘rsatadi [10]. Tergov organining operativligini saqlagan holda, fundamental huquqlarni cheklovchi barcha harakatlar ustidan sud nazoratini o‘rnatish jarayonini yakunlash, shuningdek tergov sudyasi vakolatlarini nafaqat sanksiyalash, balki tergov harakatlarining mutanosibligini keyingi bosqichda ham qayta ko‘rib chiqish imkoniyati bilan boyitish zarur.

5. Tergov jarayonida inson omili bilan bog'liq risklarning protsessual kafolatlarga ta'siri.

Protsessual kafolatlarning amalda ishlashi nafaqat qonunchilik normalarining sifatiga, balki ularni qo'llovchi shaxs tergovchining kasbiy malakasi, ish yuklamasi, psixologik barqarorligi, huquqiy savodxonligi, axloqiy pozitsiyasi va muloqot qobiliyatiga ham bog'liq [12]. Ushbu omillar "inson omili" tushunchasi orqali umumlashtiriladi va ular to'g'ri boshqarilmasa, protsessual xatolar, muddat buzilishi, dalillarni baholashda subyektivlik, fuqarolar huquqlariga putur yetishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin [12].

Inson omili bilan bog'liq risklarni baholash uchun taklif etilgan "ehtimollik ta'sir nazorat darajasi" ($RD = E \times T \times NZ$) modeli tergov bo'linmalarida qaysi risk ustuvor ekanini aniqlashtirishga imkon beradi [12]. Xususan, subyektiv qaror qabul qilish va kasbiy bilim yetishmasligi eng yuqori risk darajasiga ega yo'nalishlar sifatida baholanadi, bu esa ularning bevosita protsessual kafolatlar xolislik, dalillarni to'liq va har tomonlama tekshirish, shaxs huquqlarini hurmat qilish bilan bog'liqligini ko'rsatadi [12]. 2-jadvalda ushbu risklarning protsessual kafolatlarga ta'siri va ularni kamaytirish choralari umumlashtirilgan.

Inson omili riski	Protsessual kafolatga ta'siri	Kamaytirish chorasi
Ish yuklamasi ortishi	Muddatlarga rioya qilmaslik, ushlab turishni o'z vaqtida rasmiylashtirmaslik	Ishlarni murakkablik bo'yicha taqsimlash, elektron monitoring [12]
Kasbiy bilim yetishmasligi	Himoya huquqi va dalillar maqbulligi normalarini noto'g'ri qo'llash	Amaliyotga yo'naltirilgan maqsadli o'quvlar, nastavniklik [12]
Subyektiv qaror qabul qilish	Bir versiyaga erta bog'lanish, muqobil dalillarni e'tiborsiz qoldirish	Kollegial muhokama, rahbariyat tomonidan davriy ko'rib chiqish [12]
Psixologik charchash	Ushlangan shaxs bilan noto'g'ri muloqot, shoshilinch qarorlar	Psixologik qo'llab-quvvatlash, ish va dam olish rejimi [12]

Shu tariqa, protsessual kafolatlarning huquqiy jihatdan mustahkam belgilanishi yetarli emas ularni amalda ta'minlaydigan tergovchi va tergov sudyasining kasbiy va psixologik holatini institutsional darajada boshqarish ham inson huquqlarini himoya qilishning ajralmas qismidir [12].

6. Raqamli tergovda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligiga elektron qurilmalarni olib qo'yish, ko'zdan kechirish va xatlash bo'yicha kiritilgan yangi normalar axborot asrining talabi bo'lsa-da, texnologik murakkablik sababli qonunchilik amaliyotdan orqada qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamlashtirish tergov jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, dalillarni to'plash va tekshirish jarayonini yengillashtiradi, biroq bu jarayon qonuniylik doirasida amalga oshirilishi shart [11]. Dalil sifatida olingan smartfon yoki kompyuterdagi jinoyatga aloqador bo'lmagan shaxsiy sirlar (tibbiy, bank, oilaviy) tergovchi ixtiyoriga o'tib qolishi "ma'lumotlarni minimallashtirish" (data minimization) prinsipiga zid holatdir.

Shu sababli kriptografik himoyalangan ma'lumotlarni ochish va elektron nusxalash jarayonida IT-mutaxassislarning majburiy ishtirokini ta'minlash, sudning maxsus sanksiyasiz shaxsiy arxivlarga kirishni taqiqlovchi qat'iy mexanizmni JPKga kiritish, shuningdek raqamli dalillarni to'g'ri yig'ish va saqlash tartiblarini standartlashtirish lozim, chunki bu tergov natijalarining ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [11].

Xulosa. Tergov faoliyatida inson huquqlarining himoyasi deklarativ normalar bilangina emas, balki qat'iy va real ishlaydigan protsessual mexanizmlar tergovchi va tergov sudyasi vakolatlarining aniq taqsimlanishi, himoya huquqi kafolatlarining amaliy ta'minlanishi, inson omili risklarining institutsional boshqaruvi hamda raqamli dalillar bilan ishlashda shaxsning axborot daxlsizligini kafolatlash orqali ta'minlanishi shart. O'tkazilgan tahlil quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

birinchidan, amalda ushlab turish vaqtini qat'iy hisobga olish va "Miranda qoidolari"ni zudlik bilan tushuntirish majburiyatini JPK 224-moddasiga kiritish zarur;

ikkinchidan, himoya tarafi taqdim etgan dalillarni ishga qo'shishni tergovchi uchun imperativ majburiyat qilib belgilash lozim;

uchinchidan, tergov sudyasi vakolatlarini xalqaro tajriba (Fransiya, Germaniya modellari) asosida kengaytirib, fundamental huquqlarni cheklovchi barcha tergov harakatlari ustidan to'laqonli sud nazoratini joriy etish zarur;

to'rtinchidan, tergov bo'linmalarida inson omili risklarini "ehtimollik ta'sir nazorat darajasi" modeli asosida muntazam baholab borish va ish yuklamasini oqilona taqsimlash tizimini institutsionallashtirish lozim;

beshinchidan, raqamli dalillar bilan ishlashda IT-mutaxassislarning majburiy ishtirokini va sudning maxsus sanksiyasiz shaxsiy arxivlarga kirishni taqiqlovchi mexanizmni JPKga kiritish zarur.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksini zamonaviy huquqiy realikka moslashtirish, tergov faoliyatida qonuniylik, xolislik va inson

huquqlarining samarali himoyasini ta’minlashning kechiktirib bo‘lmaydigan ilmiy-amaliy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. — T.: Adolat, 2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi “Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 24-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrda 17-sonli Qarori.
6. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrda 217 A (III) rezolyutsiyasi).
7. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrda 2200 A (XXI) rezolyutsiyasi).
8. Qiynoqqa solishga va boshqa shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomalaga hamda jazolashga qarshi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasi, 1984-yil 10-dekabr).
9. Bazarov S.M. Jinoyat protsessida majburlov choralari: nazariya va amaliyot. Monografiya. — T.: TDYU nashriyoti, 2021. — 184 b.
10. Ummatov M.T. Tergov sudyasi vakolatlarining o‘ziga xos jihatlari // Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. — 2026. — Vol. 6, Issue 01. — B. 93–100.
11. Ummatov M.T. Jinoyat-protsessual huquqda tergovchining vakolatlari // Central Asian Journal of Education and Innovation. — 2026. — Vol. 5, Issue 03. — B. 116–119.
12. Turdiyev S.I. Tergov jarayonida inson omili bilan bog‘liq risklarni baholash va ularni kamaytirish yo‘llari // “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali. — 2026. — 15-son. — B. 1544–1553.
13. Ummatov M.T. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoyalash huquqi bilan ta’minlashning o‘ziga xos jihatlari // Central Asian Journal of Education and Innovation. — 2026. — Vol. 5, Issue 03. — B. 67–71.

14. Sadullayeva Sh.D. Axborot kodeksi orqali raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlarini himoya qilish: huquqiy va institutsional mexanizmlar tahlili // Yurisprudensiya. — 2026. — Vol. 6, Issue 2. — B. 101–109.

15. ISO 31000:2018. Risk management — Guidelines. International Organization for Standardization.

16. United Nations Office on Drugs and Crime. Handbook on Police Accountability, Oversight and Integrity.